MARHABO UMURZOQOVA

“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

(1-kurs uchun)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MARHABO UMURZOQOVA

“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH
(1-kurs uchun)

(Uslubiy qo‘llanma)

TOSHKENT – 2021

29730
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO‘TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Tuzuvchi: **M. Umurzoqova,** A.Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Taqrizchilar: **K. Mavlonova,** A.Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

D.Lutfullayeva, O'zXIA o'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Kengashining 7-sonli qarori (2020.29.12) bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘ZBOSHI

2020-2021-o‘quv yilidan respublikamizning 33 dan ortiq yirik OTMlari qatorida Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUda ham kredit-modul tizimiga o‘tildi. Kredit-modul tizimi ta’limning amaldagidan ancha mukammal, zamonaviy, lekin hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini olib kiradi. Kreditlar shunchaki raqamlar emas, har bir talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini va buning natijasida muayyan o‘qish natijalariga erishganligini bildiradigan ta’lim tizimi ekanligini mutaxassislar ta’kidlashmoqda[1].

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarida «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risida Namunaviy nizom» asosida ta’lim yo‘nalishlarida barcha o‘quv fanlari bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan. Bundan kutilgan maqsad talabada muayyan o‘quv fani bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Fanlar bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarni ijodiy mustaqillikka undaydi, ularni erkin mushohada yuritishga o‘rgatadi, fan bo‘yicha egallagan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Negaki talabalarga mustaqil ishlarni bajarishda qo‘yiladigan talablar ulardan fanning ma’lum jabhalarini mustaqil tarzda chuqurroq o‘rganishni, buning uchun turli izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

51200100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat yo‘nalishi talabalariga 1-kurs 2-semestrda, 2-kurs 2-3-semestrlarda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani o‘qitiladi. O‘quv fani uchun jami 240 soat mustaqil ta’lim uchun ajratilgan bo‘lib, shundan 2-semestrda 85 soat mo‘ljallangan.

«Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan tashkil etiladigan mustaqil ishlarda quyidagilarga erishish maqsad qilib belgilanadi:

Asosiy maqsad talabada o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

---

[1] Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муасссаларида ECTS Кредит-Модуль. Асосий тушунча ва қоидалар. – Тошкент, 2020. 10 август. – Б. 9

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliy topshiriqdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash;
- amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantsion) ta'lim;
- uy vazifalarini bajarish va h.k.

I. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI

ECTS kredit-modul tizimida talaba fanlar va modullar bo'yicha kreditlarni qo'lga kiritish uchun o'quv yuklamalarini bajarishning o'zi kifoya qilmaydi. U tegishli miqdordagi o'qish yuklamalarini bajargandan keyin ular asosida muayyan o'qish natijalarini ham ko'rsata olishi zarur. O'qish natijalari bu talaba o'quv yuklamalarini bajarish natijasida o'rganish, tushunish va qila olishi kutilayotgan bilim va ko'nikmalar jamlanmasidir[2]. Kredit-modul tizimida talabaning bilim olishi uchun mustaqil ta'lim soatlariga alohida e'tibor qaratilgan. 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Talabaning kutubxonada ishlashi, darsdan so'ng mustaqil o'qishi uchun qiziqarli materillar va muammolar berish o'qituvchining vazifasi sanaladi. Chunki kerakli materiallar va muammolar berib borilmasa, talaba darsdan tashqari nimani o'qishi kerakligini bilmaydi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

---

[2] Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муасссаларида ECTS Кредит-Модуль. Асосий тушунча ва қоидалар. – Тошкент, 2020. 10 август. – Б. 11

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliy topshiriqdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash;
- amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantsion) ta'lim;
- uy vazifalarini bajarish va h.k.

I. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI

ECTS kredit-modul tizimida talaba fanlar va modullar bo'yicha kreditlarni qo'lga kiritish uchun o'quv yuklamalarini bajarishning o'zi kifoya qilmaydi. U tegishli miqdordagi o'qish yuklamalarini bajargandan keyin ular asosida muayyan o'qish natijalarini ham ko'rsata olishi zarur. O'qish natijalari bu talaba o'quv yuklamalarini bajarish natijasida o'rganish, tushunish va qila olishi kutilayotgan bilim va ko'nikmalar jamlanmasidir[2]. Kredit-modul tizimida talabaning bilim olishi uchun mustaqil ta'lim soatlariga alohida e'tibor qaratilgan. 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Talabaning kutubxonada ishlashi, darsdan so'ng mustaqil o'qishi uchun qiziqarli materillar va muammolar berish o'qituvchining vazifasi sanaladi. Chunki kerakli materiallar va muammolar berib borilmasa, talaba darsdan tashqari nimani o'qishi kerakligini bilmaydi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

---

[2] Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муасссаларида ECTS Кредит-Модуль. Асосий тушунча ва қоидалар. – Тошкент, 2020. 10 август. – Б. 11

➢ fanning xususiyatlarini, unda o'tiladigan mavzularni, har bir talabaning fanni o'zlashtirish darajasi, til bilimlarini hisobga olish lozim bo'ladi;

➢ mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilashda mavzuning qiyinlik darajasiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq;

➢ talabalarning belgilangan mavzuni o'zlashtirishlarida o'quv manbalarining yetarliligini inobatga olish lozim;

➢ talabalarning mavzu bo'yicha referat, ilmiy maqola yoki tezis yoza olish ko'nikmasiga ega yoki ega emasligiga e'tibor qaratish kerak va hokazo.

Mustaqil ish uchun belgilangan mavzularining ilmiy manbalar bilan ta'minlanishi

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet materiallari tavsiya etiladi.

O'quv muassasasi tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun amaldagi me'yorlar asosida jihozlangan o'quv zaliga ega bo'lgan kutubxona, uslubiy kabinetlar, auditoriyalar, yetarli kompyuter texnikasiga ega bo'lgan xonalar va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib berilishi lozim bo'ladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish

Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy-uslubiy bo'limida qayd etiladi. Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra professor-o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Kredit-modul tizimida professor-o'qituvchining yuklamasi qayta ko'rib chiqilishi zarur. Ammo yuqorida aytib o'tganimizdek, kam sonli oliy ta'lim muassasalarida Kredit-modul tizimiga o'tilganligi professor-o'qituvchilarning ish yuklamalari amaldagi tartib (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20-2018-sonli buyrug'i) bilan belgilangan.

Kredit-modul tizimida asosiy e'tibor talabaning mustaqil ishlashiga qo'yilganligi sababli talabalarga mustaqil ishlarni bajarishda qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

1) mustaqil ish topshirig'i bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

2) mustaqil ish mavzusi bo'yicha axborot manbalarini aniqlash hamda o'quv adabiyotlari, elektron manbalar va ma'lumotlar bankini yaratish;

3) mustaqil ish mavzusiga aloqador mavjud ilmiy manbalar, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, ularni tanqidiy o'rganish va maqsadli ravishda foydalanish;

4) mustaqil ish topshirig'ini bajarishda yuzaga kelgan ilmiy xulosalarni nazariy jihatdan asoslash va uning ratsional yechimini belgilash;

5) mustaqil ish topshirig'ini ijodiy va mustaqil ravishda bajarishga erishish;

6) mustaqil ish topshirig'ini mutaxassislik kafedralarida ochiq himoya qilish.

Albatta, talaba tomonidan bu vazifalarning amalga oshirilishi ularga katta mas'uliyat yuklaydi, talabani mustaqil ishlashga o'rgatadi, uni kichik tadqiqot egasiga aylantiradi. Fanga doir mavzularni mustahkamlashning bu tarzda tashkil qilinishi ta'lim tizimida, albatta, ijobiy samarasini ko'rsatadi.

Ma'lumki, fanlar bo'yicha talaba mustaqil ishlarini o'tkazish tartibi, undagi topshiriqlar tizimi tegishli kafedralarda ishlab chiqiladi va muhokama qilinib, kafedra, fakultet ilmiy-uslubiy kengashlarida tasdiqdan o'tkaziladi.

Har bir fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarning auditoriyadan tashqarida olib boradigan faoliyati turi hisoblangani uchun topshiriqlar tizimini belgilash jarayonida auditoriyadan tashqaridagi mavjud imkoniyatlar, xususan, mavzuga aloqador o'quv-ilmiy manbalarning yetarli ekanligi va talabaning ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligi hisobga olinadi.

Fanlar bo'yicha tuzilgan mustaqil ishlar topshiriqlari, uni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari o'quv yili (semestri) boshidayoq talabalarga taqdim etiladi.

Albatta, har bir o‘quv fani bo‘yicha semestr davomida talabalarning mustaqil ishlarini muntazam ravishda nazorat etib borish bu yo‘nalishda olib borilajak ishlarning samarasini ta’minlaydi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish vazifasini amalga oshirish uchun kafedralar tomonidan talabalarga zaruriy uslubiy qo‘llanmalar va amaliy tavsiyanomalarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Mana shu maqsad asosida tuzilgan ushbu uslubiy qo‘llanmamiz oliy o‘quv yurtlari filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalariga «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan mustaqil ishlarni bajarishlari uchun amaliy yordam beradi degan umiddamiz.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma talabalarni «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish uchun axborot manbalari bilan tanishtiradi, talabalarga belgilangan mavzular bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni to‘plash yuzasidan ko‘rsatmalar beradi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmada quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutildi:

– oliy o‘quv yurtlarida mustaqil ishlarni tashkil etishning umumiy masalalarini yoritish;

– filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani yuzasidan mustaqil ish topshiriqlarni ishlab chiqish;

– “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani yuzasidan ayrim mustaqil ishlarni bajarishga oid amaliy tavsiyalarni bayon etish.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha topshiriqlar tizimini yaratish va ularni bajarishga doir amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari hamda fanga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalari nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Mana shularni e’tiborga olib, o‘quv-uslubiy qo‘llanmada foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati ham ilova etildi.

II. “HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

2.1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus

ta'lim vazirligining 2008-yidagi 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi" namunaviy Nizomi asosida amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"gi 824-son qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorning 1-ilovasi "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizom bo'lib, unda baholash, baholarni konvertatsiya qilish qoidalari belgilab qo'yilgan.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejada muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv soatining ajralmas qismi bo'lib u uslubiy axborot resurslari bilan ta'minlanadi.

Mazkur Nizomga ko'ra o'quv yuklamasi bakalavriatda 40-50% auditoriya, 50-60% mustaqil ish soatiga ajratilgan. Fan uchun 6 kredit ajratilgan, shundan 1-modulda talaba 2 kredit to'plashi zarur. Mustaqil ishlarni bajargan, amaliy va seminar mashg'ulotlarida qatnashgan talaba kredit to'play oladi.

Mustaqil ta'lim har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda referat, uy vazifasi, prezentatsiya, kurs ishi va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Mustaqil ta'lim turlariga quyidagilar kiradi:

- ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar va seminarlarga tayyorgarlik ko'rish;
- kurs ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- mavzu yoki ma'lum bir bob bo'yicha tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar qilish va ilmiy maqola tayyorlash;
- anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashish;
- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash;
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish;
- mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash.

O‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

O‘qitiladigan fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlarida talabalar mustaqil ishining mazmuni, mohiyati, shakli va hajmi hamda manbalari ko‘rsatiladi.

Shuningdek, “Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi” namunaviy Nizomiga muvofiq har bir fan bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar shakli, mazmuni va hajmi namunaviy va ishchi o‘quv dasturlarida o‘z aksini topishi talab etiladi. Jumladan, oliy o‘quv yurtlari Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi uchun tuzilgan namunaviy o‘quv rejada «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani uchun ham “Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi” namunaviy Nizomiga muvofiq tarzda mustaqil ishlar uchun o‘quv soatlari ajratilgan.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining o‘quv soatlari hajmi (1-kurs uchun)

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
1.	Ma’ruza	25 soat (2-semestr -25 soat)	2
2.	Amaliy mashg‘ulot	25 soat (2-semestr -25 soat)	2
3	Seminar mashg‘ulot	25 soat (2-semestr -25 soat)	2
4.	Mustaqil ta’lim	85 soat (2-semestr -85 soat)	2
	Jami	160 soat	

Ko‘rinadiki, talabalarning mustaqil ishlari «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi sanaladi va muayyan o‘quv soatlari bilan ajratiladi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, fikrni ravon, ifodali, shu bilan birga, izchil, maqsadga muvofiq tarzda og‘zaki va yozma shakllarda bayon eta olish ko‘nikmasini shakllantirish mazkur fan bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlarning asl maqsadi hisoblanadi. Mana shu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlar talabalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha o‘quv

materiallarni o‘zlashtirishlariga yordam berishi bilan bir qatorda, ularni mustaqil fikrlashga, erkin fikr yuritishga o‘rgatadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan tashkil etilajak mustaqil ishlar talabaning auditoriyadan tashqarida olib boradigan mustaqil faoliyat turi sanaladi. Bu holat talabani mustaqil tarzda izlanishlar olib borishga undaydi, ularni erkin tadqiqot olib borish muhitiga olib kiradi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan tashkil etilajak talabalarning mustaqil ishlarini muammoli ta’lim tizimi jarayoni bilan bog‘liq tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani yuzasidan belgilangan mustaqil ishlarni bajarishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim bo‘ladi:

1) mustaqil ish topshirig‘ining asl mohiyatini belgilab olish: topshiriqdan ko‘zlangan maqsad va amalga oshiriladigan vazifalarini to‘g‘ri belgilash;

2) nazariy muammolar tahliliga doir mustaqil ish mavzusining tadqiq darajasini o‘rganish va unga tanqidiy munosabat bildirish;

3) mustaqil ish mavzusi bo‘yicha daliliy materiallar to‘plash va ularni tahlil qilish asosida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;

4) mustaqil ish topshirig‘ini bajarishda til hodisalarini o‘zaro aloqa-bog‘lanishda o‘rganish, ularning umumiy va farqli belgilarini ajratish.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan mustaqil ishlarni yozishda ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan tahlil usullari: tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlarni nazorat qilish fan o‘qituvchisi zimmasiga yuklatiladi. Fan o‘qituvchisi mustaqil ishlar topshirig‘ini bajarish uchun talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib boradi, belgilangan konsultatsiyalar jadvali asosida talabalar bilan ishlaydi, ularga mustaqil ish topshirig‘ini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar berib boradi.

Fan o‘qituvchisi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarishga doir o‘z uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqadi va ularni semestr boshidayoq talabalarga taqdim etadi. Albatta, bu kabi uslubiy

qo'llanmalar talabalarga mustaqil ishlarni bajarishlarida amaliy yordam ko'rsatadi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga yo'naltiradi. Bu fan bo'yicha belgilangan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha nazariy muammolar tahliliga doir bilimlarni mustaqil ravishda va ijodiy tarzda o'zlashtiradi.

2. Talaba mustaqil tarzda mavzuning tadqiq darajasini belgilaydi hamda mavzuning ilmiy-nazariy qimmati va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

3. Talaba og'zaki va yozma nutqini rivojlantirib boradi, u og'zaki va yozma nutqini aniq, to'g'ri, maqsadli, mantiqiy tarzda bayon etish malakasiga ega bo'ladi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarning til va lison munosabati, hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetikasi, fonologiyasi, leksik-semantik sath, frazeologiya, leksikografiyasi haqida yanada chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam berishi jihatidan ham ahamiyatli. Mavzuni mustaqil o'zlashtirish jarayonida talaba ilmiy izlanishlar olib boradi, xulosalarini taqqoslaydi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llab ko'radi. Natijada fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar orqali talabalarda til birliklarining nutqiy qo'llanishdagi imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish imkoniyati tug'iladi.

2.2. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan 2-semestr bo'yicha mustaqil ish turlari va mavzulari

"HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI" FANIDAN BAJARILADIGAN MUSTAQIL ISHLAR SHAKLI VA HAJMI

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soat
1.	O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari	4
2.	O'zbek tilshunosligida yangi lingvistik paradigmalar	4
3.	Hozirgi o'zbek adabiy tilida lison, nutq, me'yor munosabati	6
4.	Hozirgi o'zbek adabiy tilida lisoniy munosabat va uning turlari	4

5.	Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari	4
6.	Fonema va tovushning dialektik munosabati	4
7.	O‘zbek tilshunosligida unli fonemalar tavsifi	4
8.	O‘zbek tilshunosligida undosh fonemalarning o‘rganilishi	4
9.	O‘zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti	4
10.	Leksema va so‘z munosabati	4
11.	Leksemaning semantik strukturasi	4
12.	Semema va sema munosabati. Sema turlari	6
13.	Monosemiya va polisemiya	4
14.	O‘zbek tili leksemalari tasnifi	4
15.	O‘zbek tili frazeologizmlari	6
16.	O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi	4
17.	Yasama so‘zlarning leksemalashuvi	4
18.	O‘zbek tilida graduonimiya hodisasi	4
19.	O‘zbek tilida partonimiya hodisasi	4
20.	O‘zbek tilida gipo-giperonomik munosabat va uning namoyon bo‘lishi	3
	Jami	**85**

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarida har bir fan bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ish turlari kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘quv rejasiga muvofiq tarzda ishlab chiqiladi. So‘ngra kafedra va fakultet ilmiy-uslubiy kengashlarida muhokama etilib tasdiqdan o‘tkaziladi.

O‘quv fanlariga doir mustaqil ishlar ishlanmasi: topshiriq turi va mavzulari o‘quv semestri boshidayoq talabalar hukmiga havola etiladi. Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini qabul qilgach, uni bajarish uchun kirishadilar.

Professor-o‘qituvchilar o‘zi o‘tayotgan fan bo‘yicha mustaqil ishlar topshiriqlarini tuzishda talabalarning fanga oid mavjud nazariy bilimlari, ko‘nikmalarini hamda qiziqishlari va berilgan topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlari mavjud yoki mavjud emasligini e’tiborga olishlari lozim bo‘ladi. Negaki professor-o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilajak mavzularni o‘zlashtirishda talabaning mustaqil ishlash qobiliyati yetarli emasligi va uning mavzuni mustaqil tarzda o‘zlashtira olmasligi kabi

omillar ham muhim o‘rin tutadi. Talaba hali o‘rganilmagan mavzu bo‘yicha o‘z ilmiy qarashlarini chiqara olmasligi yoki uning hali ilmiy izlanishlar olib borishga iqtidori yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli mustaqil ish mavzularini belgilashda talabaning uni mustaqil tarzda o‘zlashtira olish-olmasligini ham inobatga olish lozim bo‘ladi.

Professor-o‘qituvchilar o‘zi o‘tayotgan fan, jumladan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlar topshiriqlarini tuzishda quyidagi masalalarga e’tiborlarini qaratishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Talabalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtirishlari uchun ilmiy manbalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning, elektron manbalarning yetarli ekanligi.

2. Talabalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzularini mustaqil tarzda o‘zlashtira olish qobiliyatlariga ega ekanligi.

3. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzulari talabani mavzuga doir ilmiy-nazariy xulosalar chiqara olishga o‘rgatishi lozimligi.

4. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzulari talabaning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi.

Ma’lum bo‘ladiki, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha tuziladigan mustaqil ishlar topshirig‘i talabalarni nafaqat fanga doir ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil ravishda egallashlarini, balki o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, mantiqli, maqsadga muvofiq, izchil hamda ifodali tarzda bayon etishga, nazariy masalalarga munosabat bildirishga, xulosalar chiqara olishga o‘rgatishni ham nazarda tutadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda og‘zaki va yozma tarzda turli shakllarda tashkil etsa bo‘ladi. Masalan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining “Leksikologiya” bo‘limini o‘tishda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari yuzasidan ilmiy referat yozish mumkin. Yoki bo‘lmasa, talabalarga mustaqil ravishda hamda ijodiy yondashgan holda so‘zlarning semantik

xususiyatlarini aks ettiruvchi turli jadvallarni tuzish, semik tahlil namunalarini yaratish, badiiy matn asosida so'zlarning ma'no ko'chish turlariga misollar topish hamda ularni tahlil qilish topshirig'ini bersa ham bo'ladi.

Ma'lumki, leksema "Leksikologiya" bo'limining markaziy masalalaridan biri sanaladi. Jahon tilshunosligida, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham bu borada katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Talaba mana shu yutuqlarni ilmiy jihatdan o'rganib, o'zining umumlashma xulosalarini chiqarishi lozim bo'ladi. Talabaning bu ilmiy xulosalari unga ilmiy referat yozish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha mustaqil ishlarni bajarishda talaba quyidagi vazifalarni ado etishi lozim bo'ladi:

1. Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha mustaqil ish mavzularini darslik va o'quv qo'llanmalari, elektron manbalar yordamida mustaqil ravishda o'zlashtirishi lozim.

2. Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha berilgan mavzularni referat yozish yoki konspekt tuzish asosida o'zlashtirishda fikrini daliliy misollar orqali izohlashi zarur.

3. Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida egallangan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishi lozim.

4. Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" faniga doir ayrim mavzularni o'zlashtirishda zarur o'rinlarda mavzuga doir tarqatma materiallar, nazorat topshiriqlari hamda ko'rgazmali qurollarni ishlab chiqishi ham mumkin.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari ayni fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqa shakllarda, jumladan, davra suhbatlari o'tkazish, bahs-munozaralar tashkil etish tarzida ham tashkil etilishi mumkin.

III. " HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI" FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHGA DOIR KO'RSATMALAR

3.1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan mavzularga doir mustaqil ishlarni bajarish

Talabalar mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzular uchun o'zlariga ma'qul shakllarda taqdimotlar tayyorlaydi.

«Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusi uchun 6 soat ajratilgan bo'lib, mazkur mavzu bo'yicha grammatik topshiriqlar tizimini yaratish mumkin.

«Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusi bo'yicha grammatik topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

1. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusini o'zlashtirish.
2. Grammatik topshiriq turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.
3. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusining talaba bilishi lozim bo'lgan jihatlarini hisobga olgan holda grammatik topshiriqlarni ishlab chiqish.

«Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusi bo'yicha grammatik topshiriqlarning quyidagi turlarini tuzishni tavsiya etamiz:

1. «Semema va sema munosabati. Sema turlari»ni aniqlashga doir nazorat savollarini tuzish.
2. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» o'rganishga doir semantik tahlillar o'tkazish.
3. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusiga doir jadvallar ustida ishlash.
4. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusiga doir testlar tuzish.
5. «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusiga doir grammatik boshqotirmalarni tuzish.

«Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusiga oid quyidagi grammatik topshiriqlar namunasini tavsiya etamiz:

1- topshiriq. Quyidagi nazorat savollariga javob bering.

1. Sememaning tarkibi qanday tuzilgan?

2. Semema semalarining asosiy tiplari M.Mirtojiyev talqinida qanday berilgan?

3. Sema turlarining Sh.Rahmatullayev asarlarida qanday yoritilgan?

4. Boshqa adabiyotlarda semalar tasnifininig yoritilishi haqida so'zlab bering.

5. Sema haqida ma'lumot bering.

6. Semalarning ma'no xususiyatiga ko'ra qanday turlari mavjud?

7. Denotativ sema deb nimaga aytiladi?

8. Konnotativ sema deb nimaga aytiladi?

9. Vazifa semasining ajratilishiga sizning munosabatingiz qanday?

10. Integral sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.

11. Differensial sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.

12. Arxisema deb nimaga aytiladi?

13. Implikatsional deb nimaga aytiladi?

14. Tilshunoslikda intensional termini nima uchun qo'llanadi?

2- topshiriq. "Tushunchalar tahlili" usuli orqali «Semema va sema munosabati. Sema turlari» mavzusiga oid tayanch tushunchalarga izoh bering.

Tushunchalar	Izohi
Sema	
Semema	
Atash semasi	
Ifoda semasi	
Vazifa semasi	
Arxisema	
Hosila sema	

3- topshiriq. Berilgan leksemalarni komponent tahlil qiling. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug'atdan foydalaning.

Yuz, bashara, shamol, bo'ron, daraxt, kitob, baho, maktab, bormoq, yugurmoq, ushmoq, yozmoq.

Namuna:

1. ***Shamol*** leksemasi.

Nomemasi: sh, a, m, o, l.

Sememasi: "havo oqimining yer sathi bo'ylab tez harakat qilishi".

Semalari: «havo oqimi», «yer sathida haraktlanuvshi», «tez harakat qiluvshi», «ovoz shiqaruvshi». Barsha semalar denotativ semalardir.

2. *Kun:* «sutka qismi», «quyosh shiqqandan botguncha», «yorug‘».

TUN: «sutka qismi», «quyosh botgandan shiqquncha», «qorong‘i».

«Sutka qismi» semasi integral semadir

3. *Qish* leksemasi.

Sememasi: “kuzdan keyin bahordan oldin keladigan yilning sovuq fasli”

Semalari:

1) yil fasli,

2) 1-dekabrdan 1-martgasha davom etadigan,

3) sovuq.

Bu o‘rinda qish sememasining 3 semasini ajratdik, xolos. Binobarin, qish sememasining yana ko‘plab semalarini sanash mumkin. Lekin komponent tahlilning eng asosiy shartlaridan biri shuki, tahlilda semema haqida muayyan tasavvur beruvshi, uni o‘ziga o‘xshash boshqa sememadan ajratuvshi eng kam miqdordagi asosiy semalar ajratilishi lozim. *Qish* sememasi tarkibidagi yuqorida ajratilgan semalar mazkur ma’no haqida yetarlicha ma’lumot bermoqda va uni bahor, yoz, kuz sememalaridan ajratib turibdi. Demak, qish leksemasining «yil fasli», «1-dekabrdan 1-martgacha davom etadigan», «sovuq» semalari uning asosiy semalaridir. Bu kabi sememaning muhim belgilarini ko‘rsatuvshi, uni boshqa sememalardan farqlovshi asosiy semalar leksik ma’noning yadrosini tashkil qiladi. Leksik ma’noning (sememaning) yadrosini tashkil qiluvshi semalar yig‘indisi esa intensional deyiladi. Qish sememaning yana ko‘plab semalarini keltirish mumkin. Masalan, «qor yog‘adi», «suvlar muzlaydi», «tabiat uyquga ketadi», «quyosh gorizontdan ansha pasayadi», «qorbobo yasaladi», «sirpanshiq ushiladi» kabi. Semema strukturasida quyiroq mavqeda joylashgan bu ikkilamshi, chet semalar ma’no yadrosini o‘rab turadi. Bunday ikkilamshi, chet semalar yig‘indisi semasiologik tadqiqotlarda implikatsional termini bilan ataladi[3]. Implikatsional semalar kuchli (qish: uch oydan iborat, kuzdan keyin, bahordan oldin), kuchsiz (qish: hamma issiq kiyinadi,

---

[3] Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – Москва: Высшая школа. – С. 62

ALISHER NAVOIY NOMIDA: 29730 ToshDO‘TAU AXBOROT RESURS

qorbobo keladi) bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda implikatsional semalar intensionalga nomutanosib bo'lishi ham mumkin. Bunday holat, asosan, oksyumoronda kuzatiladi: *qish otashi* (qish: issiq), *qor harorati* (qor: issiq), *yong'inli daryo* (daryo: alanga), *tirik murda* (murda: jonli) kabi

"Monosemiya va polisemiya" mavzusi uchun 4 soat ajratilgan bo'lib, talaba dastlab mavjud darslik va o'quv qo'llanmalardan mavzuga doir ilmiy ma'lumotlarni o'rganadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan polisemiyaga misol bo'la oladigan so'zlarni topish, tahlil qilish, ularning qanday ma'no anglatayotganligini izohlash uchun misollar topish topshirig'ini berish mumkin. Bu topshiriqni bajarish uchun talaba quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan ko'p ma'noli so'zga 10 ta misol toping.
2. Ko'p ma'noli so'zlarning yuzaga kelish sabablarini tushuntiring.
3. Siz topgan misolda ko'p ma'nolilik qaysi usulda yuzaga kelgan, ular orasidagi ma'no bog'liqligini tushuntiring.

3.2. Matn tahlili ustida ishlash bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish

"O'zbek tili leksemalari tasnifi" mavzusi uchun 4 soat ajratilgan bo'lib, bunda talabaga biror badiiy asar matni ustida ishlash, unda qo'llanilgan leksemalarni qo'llanilish doirasiga ko'ra chegaralangan (dialektal, terminologik, noadabiy-argo, jargon) va chegaralanmagan; tarixiylik nuqtayi nazaridan (betaraf, eskirgan, yangi leksika) va uslubiy xoslanganlik jihatidan (uslubiy xoslangan va betaraf) turlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi. Kichik hajmdagi matnning leksik qatlamini tasnif qilish, qaysi qatlamga oid so'zlarning ko'p qo'llanilishini aniqlashni topshiriq sifatida berish mumkin. Bunday tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi asarlar matnini tahlil qilish tavsiya etiladi.

1. Abdulla Qodiriy. "Uloqda"
2. Abdulla Qahhor. "Anor"
3. Erkin A'zam. "Anoyining jaydari olmasi"
4. Shukur Xolmirzayev. "O'zbeklar"
5. Zamira Qurolboy qizi. "Yetim uy"

6. To‘lqin Eshbek. Ostanaqul buvaning “boyliklari”
7. Usmon Azim. “Bir dasta qizil gul”
8. Nodirabegim Ibrohimova. “Men, dadam va Altsgeymer”

Topshiriqni bajarish uchun talaba avval matnni o‘qib chiqadi, mazmunini tushunib oladi, asar tilining o‘ziga xosligiga e’tibor qaratadi. So‘ng matnda qo‘llanilgan so‘zlarni tasnif qiladi. Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi matnida qo‘llanilgan leksik hamda frazeologik birliklarni quyidagi reja asosida tasnif qilishi mumkin.

I. Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasining lug‘aviy tarkibi va semantik xususiyatlari:

1.1. Abdulla Qodiriy “Uloqda” hikoyasida o‘z qatlam.

a) qarindosh va biologik jins tushunchasini ifodalovchi birliklar: *ota, aka, ona*

b) kasb-hunar, mashg‘ulot nomlari: *uloqchi*

1.2. Abdulla Qodiriy “Uloqda” hikoyasida o‘zlashgan qatlam.

a) arabcha so‘zlar;

b) forsiy so‘zlar.

1.3. “Uloqda” hikoyasida qo‘llanilgan ko‘chma ma’noli so‘zlar.

Har bir matn mohiyatidan kelib chiqib, talaba tasnifni o‘zi mustaqil amalga oshiradi. Asar matnida qo‘llanilgan iboralar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, terminlar, chet va dag‘al so‘zlar ham alohida ma’noviy guruhlarga ajratilishi mumkin. Buning uchun talaba avval ilmiy adabiyotlar bilan tanishishi, o‘zbek tilidagi leksemalar tasnifi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Mazkur topshiriqni bajarish uchun talabalarga quyidagi adabiyotlarni o‘qish tavsiya etiladi:

1.Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zMU, 2013.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995

5. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари. . Филол. фан. номз.дисс... автореф. – Тошкент, 2011.
6. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз.дисс... автореф. – Тошкент, 2001.
7. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990.
8. Қиличов Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000.
9. Холмуродова М. "Қутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан. фал. док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019.

3.3. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan ilmiy referat yozish tartibi

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan ilmiy referat yozish ishning rejasini tuzishdan boshlanadi. Buning uchun, avvalo, ilmiy referat yozish shaklidagi mustaqil ish topshirig'i nimadan iborat ekanligi, uni bajarish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozimligini anglab yetish lozim.

Ilmiy referat rejasini tuzishda mavzuning mohiyatini atroflicha qamrab olishga harakat qilish lozim bo'ladi. Ilmiy referat mavzusi uchun xomaki reja masalaga doir ilmiy manbalar kartotekasi yaratilgach va bu manbalar o'rganilib, muayyan tasavvurga ega bo'lingach tuziladi. Referatni yozish jarayonida yangi ma'lumotlarga ega bo'linganda reja o'zgartirilishi yoki qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilishi ham mumkin.

Ilmiy referat rejasida quyidagi masalalar qamrab olingan bo'lishi lozim:

1. Ilmiy mavzuning tadqiqi masalasi.
2. Mavzuga xos eng muhim jihatlarining ilmiy bayoni.
3. Ilmiy mavzu bo'yicha umumlashma xulosalar bayoni.
4. Ilmiy mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

"Ilmiy mavzuning tadqiqi masalasi" ilmiy referatning Kirish qismida bayon etiladi. Bunda talaba masalaga doir ilmiy adabiyotlar sharhini keltiradi. Ularga nisbatan o'z tanqidiy qarashlarini ifoda etadi.

"Mavzuga xos eng muhim jihatlarining ilmiy bayoni"da talaba ilmiy referatda ko'tarilgan muammo bo'yicha o'z kuzatishlarini bayon

etadi. U o‘z nazariy qarashlarini taqqoslaydi, xulosalarini asoslashga harakat qiladi. Eng asosiysi, talaba referatda ilgari surgan nazariy g‘oyalarini ilmiy asoslashi lozim bo‘ladi.

Talaba nazariy xulosalarini dalillash uchun badiiy asarlardan saralab olingan misollar tahliliga murojaat qiladi. Bunday misollar ko‘tarilgan nazariy muammoni ochib berishga xizmat qilishi lozim.

Talaba chiqargan nazariy xulosalar referatda izchil tarzda bayon etilishi maqsadga muvofiq. Bo‘lim (bob)larning o‘zaro bog‘liqligiga, ular o‘rtasidagi mantiqiy izchillikka e’tibor qaratilishi lozim.

Talaba ilmiy referatda ko‘tarilgan nazariy xulosalarini asoslashda til hodisalarini tavsiflash, qiyoslash, o‘zaro zidlash, shuningdek, bevosita ishtirokchilarga ajratish kabi tahlil usullaridan foydalangan holda ish ko‘rishi lozim bo‘ladi. Bu tahlil usullari to‘g‘ri tanlanishi va mavzuni ochib berishga xizmat qilishi lozim. Negaki ilmiy referatda ko‘tarilgan nazariy muammoning to‘laqonli yechimi tanlagan tahlil usuliga ham bog‘liq bo‘ladi.

“Ilmiy mavzu bo‘yicha umumlashma xulosalar bayoni”da mavzu bo‘yicha egallangan nazariy xulosalar umumlashtiriladi. Bu jarayonda talaba mavzuga oid nazariy xulosalarini qisqa umumlashmalarda aks ettiradi. Xulosalar alohida bandlarda aniq, lo‘nda va izchil bayon etilishi lozim.

“Ilmiy mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da esa mavzuga aloqador foydalanilgan barcha adabiyotlar ro‘yxati qayd etiladi.

Ilmiy referatni yozishda masalaga aloqador nashr etilganiga kamida besh-o‘n yil bo‘lgan so‘nggi ilmiy-nazariy, o‘quv-uslubiy adabiyotlar: darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va tezislardan, shu bilan birga, elektron darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ilmiy referatni yozishda tilshunoslikning dolzarb masalalari yechimiga bag‘ishlangan respublikamizda nashr etiluvchi «O‘zbek tili va adabiyoti», «Til va adabiyot ta’limi» jurnallariga ham murojaat qilish mumkin.

Ilmiy referatni yozishda mavzuga aloqador nazariy manbalarning yetarli bo‘lishi, ularda masalaning chuqur tahlil etilganligi muhim

ahamiyatga ega. Bular talabaga mavzu rejasini hamda yoritiladigan asosiy masalalarni to‘g‘ri belgilab olishga imkon yaratadi. Mavjud adabiyotlarni sinchiklab o‘rganish orqali talaba mavzuni mustaqil o‘rganadi va umumlashma xulosalar chiqaradi.

Ilmiy referat mavzusiga oid adabiyotlarni o‘rganish orqali talaba mustaqil ishning maqsad va vazifalarini belgilab oladi, ishda nimaga e’tibor qaratishi lozimligini fahmlaydi, asosiy va ikkilamchi masalalarni ajratadi. Ilmiy manbalarni o‘rganish asosida talaba ilmiy referat mavzusining o‘rganilganlik darajasini belgilaydi, mavzuning qaysi jihatlari hali o‘rganilmaganligini anglab yetadi.

Ilmiy referat mavzusiga oid adabiyotlarni tahlil qilishni, avvalo, o‘quv darsliklari va qo‘llanmalardan boshlash lozim. Ma’lumki, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida mavzuga oid eng muhim masalalar yoritiladi. Ularni tahlil qilish asosida ilmiy referat mavzusi yuzasidan dastlabki bilimga ega bo‘lish mumkin.

Talaba ilmiy referat mavzusiga oid ilmiy manbalarni qancha ko‘p o‘qib o‘rgansa, mavzu yuzasidan shunchalik ko‘p nazariy ma’lumotga ega bo‘ladi.

Ilmiy referatni yozishda masalaga doir ilmiy manbalardan muhim nazariy qarashlarni havola qilib keltirish mumkin. Bunday havolalar talabaning nazariy xulosasini ilmiy asoslashga yordam beradi.

Havolalar aynan yoki o‘zlashtirma gap shaklida beriladi. Aynan beriladigan havolalar ilmiy manbadan hech o‘zgartirishsiz ko‘chiriladi. Havolalar o‘zlashtirma gap shaklida berilganda ularning mazmuni to‘liq saqlanib qolinishiga e’tibor qaratiladi.

Xullas, yuqorida birma-bir sharhlangan masalalar ilmiy referatda aniq va izchil tartibda bayon etilishi maqsadga muvofiq, matn o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya qilingan holda yozilishi lozim.

Ilmiy referat quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1. Ilmiy referatning har bir beti (titul varaq bundan mustasno) birma-bir sahifalanadi. Raqam sahifaning yuqori yoki quyi qismi o‘rtasiga qo‘yiladi. Ilmiy referatning titul varag‘i birinchi varaq hisoblanadi. Ikkinchi varaqqa mavzu rejasi bayon etiladi.

2. Referat matni varaqning o‘ng tomonidan 1.5 sm, chap tomonidan 3 sm, yuqoridan 2.5 sm, quyi qismidan 2.5 sm hoshiya

qoldirilgan holda yoziladi. Ilmiy referat Times New Roman shriftida, 14 kegl, satrlar oralig'i 1.5 interval bo'lishi shart.

3. Referat rejasida ko'rsatilgan har bir masala bayoni yangi sahifadan boshlab yoziladi. Bunda bob (bo'lim)larning nomlari bosh harflar bilan, uning bandlari kichik harflar bilan yoziladi.

4. Bo'lim (bob) nomlarini yozishda bo'g'in ko'chirish qoidasiga yo'l qo'yilmaydi. Bob nomlaridan so'ng nuqta qo'yilmaydi.

Ilmiy referat fan o'qituvchisi nazoratidan o'tkazilgach, belgilangan tartibda himoya qilinadi.

Ilmiy referatda ko'tarilgan muammo chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, ishga yuqori ball qo'yiladi. Bunday ishni talaba kelgusida bitiruv malakaviy ishi darajasiga olib chiqishi ham mumkin.

Uslubiy ko'rsatmaning avvalgi bo'limida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlarning turi va taxminiy mavzularini tavsiya etgan edik. Quyida tavsiya etilgan mustaqil ish turlaridan ayrimlarini bajarish yuzasidan tavsiyalarimizni bayon etamiz.

«O'zbek tili frazeologizmlari» mavzusi bo'yicha ilmiy referat yozish

Ilmiy referatni yozishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. **«O'zbek tili frazeologizmlari»** mavzusini ilmiy referat tarzida yoritish rejasini belgilash.

Frazeologizmlarning tadqiq darajasini o'rganish va unga tanqidiy munosabat bildirish.

"O'zbek tili frazeologizmlari" mavzusi bo'yicha o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar shakllangan nazariy qarashlarni tahlil qilish.

Frazeologizmlarning turlari, xususan, frazeologik butunlik va frazeologik chatishma haqida ma'lumot berish, nazariy qarashlarga o'z munosabatini bildirish, frazeologizmlarning shakl va ma'no turlari haqidagi qarashlarni umumlashtirish.

Bundan tashqari "O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati"dan foydalanib, ularni tasnif qilish ham mumkin. Frazeologizmlar lug'atidan ot, sifat, fe'l frazemalarni topib tahlil qilish, so'z birikmasi va gapga teng frazemalarni ajratish, ma'nosi qaysi so'zga teng kelishini aniqlash

topshirig‘ini ham berish mumkin. “O‘zbek tili frazeologizmlari” mavzusi bo‘yicha talabalarga biror-bir asarda qo‘llanilgan frazeologizmlar indeksini ham tuzish topshirig‘ini ham berish mumkin. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha yoziladigan referat rejasini keltiramiz.

“O‘zbek tili frazeologizmlari”

REJA:

Kirish.

1. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o‘rganilishi
2. Ijtimoiy-iqtisodiy holat bildiruvchi frazeologizmlar;
3. Ruhiy holat bildiruvchi frazeologizmlar;
4. Jismoniy holat bildiruvchi frazeologizmlar;
5. Aqliy holat bildiruvchi frazeologizmlar.
6. Frazeologizmlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilmiy referatning «Kirish» qismida mavzuning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi haqidagi qarashlar tahlil etiladi.

O‘zbek tilshunoslaridan B. Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Sh.Usmonovalarning fikrlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy referatda ularga munosabat bildirish maqsadga muvofiqdir.

Talaba mana shu ilmiy manbalarni jiddiy o‘rganish orqali o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirishi lozim bo‘ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy holat bildiruvchi frazeologizmlar qismida insonning ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi o‘rni, mavqeyi, iqtisodiy ahvoli (boy, kambag‘al, nochor)ni ifoda etuvchi *qo‘li uzun, bo‘yni yo‘g‘on, qo‘li kalta* kabi frazeologizmlar tahlilga tortiladi.

Ruhiy holat bildiruvchi frazeologizmlar guruhiga *ko‘ngli g‘ash, ko‘ngli yarim, bag‘ri qon, boshi xam* kabi frazeologizmalarni kiritish mumkin. Talaba dastlab frazeolgizmlarning izohli lug‘atidan shunday iboralarni saralab oladi va badiiy asarlardan ularga misollar topib tahlil qiladi.

Ona suti og'zidan ketmagan, to'ridan go'ri yaqin, zuvalasi pishiq kabi yosh va jismoniy holat ifodalovchi frazemalarni jismoniy holat bildiruvchi frazeologizmlar qismida tahlilga tortish mumkin.

Aqliy holat bildiruvchi frazeologizmlar qismida esa *esi kirdi-chiqdi, kayfi uchdi, gapi bir joydan chiqdi* kabi birliklarni tahlilga tortish mumkin.

Ilmiy referatning "Umumiy xulosalar" frazeologizmlar yuzasidan kuzatilgan ilmiy xulosalar umumlashtiriladi.

Ilmiy referatning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"qismida ishni yozish mobaynida foydalanilgan ilmiy adabiyotlar tartibi bayon etiladi.

"O'zbek tili frazeologizmlari" mavzusi bo'yicha yoziladigan ilmiy referatda mavzuga aloqador quyidagi ilmiy manbalardan foydalanishni tavsiya etamiz:

1. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

2. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фан.док... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.

3. Йўлдошев Б. Ўзбек тили фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиш ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2007.

4. Йўлдошев Б., Адашуллаева Г. Ўзбек тилида ўзлашма фразеологизмларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2012.

5. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Фил. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2000.

6. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврўз, 2019.

7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

8. Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол.фан.номз.дисс. автореф. – Тошкент, 1998.

"O'zbek leksikografiyasi va lug'atchiligi" mavzusida yoziladigan referat uchun reja:

Kirish.

1.O‘zbek lug‘atchiligining taraqqiyoti haqida.
2. “Devonu lug‘atit-turk”ning o‘zbek lug‘atchiligida tutgan o‘rni.
3. O‘zbek lug‘atchiligi tarixining chig‘atoy davri.
4. XIX asrning ikkinchi yarmida lug‘atchilik.
5. Jadid namoyandalarining lug‘atchilikka qo‘shgan hissasi.
6. Mustaqillikdan keyingi davr lug‘atchiligi.
Umumiy xulosalar.
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

“O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusi bo‘yicha ilmiy referat yozishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. “O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusining rejasini belgilash. Bunda yuqorida tavsiya etilgan rejadan farqli ravishda talaba mustaqil o‘zi reja tuzishi mumkin.

2. Mavzuning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish darajasini tahlil qilish, mavjud manbalarga tanqidiy munosabat bildirish.

3. “O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusi bo‘yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish.

4. “O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, komponent tahlil usullaridan unumli foydalanish.

5. “O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusi yuzasidan umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish hamda ularni to‘g‘ri, aniq, izchil tarzda bayon etish.

Ilmiy referatning Kirish qismida o‘zbek tilshunosligida lug‘atchilik, uning taraqqiyot bosqichlari tadqiqi masalasiga munosabat bildiriladi.

“Devonu lug‘atit turk”, “Muqaddamatul adab”, kabi eng qadimiy yozma yodgorliklarning o‘rganilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘playdi. Navoiy asarlari uchun yaratilgan lug‘atlarning lug‘atchilikda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida qisqacha to‘xtaladi. Yuqorida sanalgan lug‘atlar “O‘zbek tili tarixi” fanida chuqurroq o‘rganilishini hisobga olib, talaba mustaqillikkacha bo‘lgan va mustaqillikdan keyingi davr lug‘atchiligi haqida kengroq to‘xtalsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida chig‘atoy davri deb nomlangan eski o‘zbek adabiy tili davri (XIV-XIX asrlar) alohida o‘rin tutadi. Alisher Navoiy ijodiga qiziqishning ortishi, uning asarlariga bag‘ishlangan

lug‘atlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Talaba rejaning mazkur qismida “Badoyeul lug‘at”, “Abushqa”, “Lug‘ati turki” kabi lug‘atlar haqida ma’lumot beradi.

Ilmiy referatning “Umumiy xulosalar” qismida nazariy xulosalar umumlashtiriladi.

Ilmiy referatning «Adabiyotlar ro‘yxati» qismida esa foydalanilgan ilmiy manbalar ro‘yxati qayd etiladi.

“O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi” mavzusidagi ilmiy referatda mavzuga doir quyidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. - 464 b.

2. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филол. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019,

3. Sayfullayeva R., Menglyiev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent. 2007. - 380 b.

4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 398 b.

“O‘zbek tilida graduonimiya hodisasi” mavzusida referat yozish

Kirish.

1. O‘zbek tilshunosligida graduonimiya hodisasining o‘rganilishi.

2. O‘zbek tilida graduonimiya va uning sininimiya, antonimiyaga munosabati.

3. O‘zbek tilida stilistik graduonimiya.

Umumiy xulosalar.

Adabiyotlar ro‘yxati.

Graduonimiya hodisasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, bu borada O.Bozorov, Sh. Orifjonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘rganiladi.

O‘zbek tilida graduonimlarning semantik, struktur, lingvomadaniy xususiyatlari haqidagi qarashlar umumlashtiriladi.

O‘zbek tilida graduonimiya va uning sininimiya, antonimiyaga munosabati qismida sinonimik qatorlar graduonimik qatorlarning bir qismi bo‘la olishi mumkinligi dalillanadi. Ma’nodosh leksemalar ham graduonimik qatorni hosil qila olishi *qizg‘anchiq, xasis, qurumsoq* so‘zlari misolida asoslaniladi.

O‘zbek tilida stilistik graduonimiya qismida esa uslubshunoslik, uning o‘rganilish obyekti, leksik darajalanishda bo‘yoqdor va ko‘chma ma’nodagi so‘zlar graduonimik qatordan joy olmasligi, leksik stilistikada esa ularning kontekstual ma’nosidan kelib chiqqan holda turli bo‘yoqdorlikka ega so‘zlar bilan graduonimik qatordan joy olishi dalillanadi.

Referat yozish uchun quyidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1997.
2. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуономия. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1994.
3. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1997.

Yuqorida qayd etganimizdek, «Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan mustaqil ishlar topshirig‘i mavzuga doir grammatik topshiriqlar tuzish, test ishlanmalarini ishlab chiqish, ilmiy mavzuni jadvallarda aks ettirish tarzida ham berilishi mumkin.

3.4. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan ma’ruza matnlari namunalarini tuzish

“O‘zbek tilshunosligida yangi lingvistik paradigmalar” mavzusida talabalarga ma’ruza matni topshirig‘ini berish mumkin. Bunda talaba ilmiy adabiyotlardan paradigma tushunchasi, paradigmaning olamning lisoniy manzarasiga munosabati, tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunoaligida yuzaga kelgan yangi lingvistik paradigmalar, ularni yuzaga keltiruvchi omillar xususida ma’lumot to‘playdi. Bu topshiriqni bajarish uchun quyidagi adabiyotlar tavsiya etiladi:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

3. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

5. Ҳакимов М., Зокиров М., Зокирова С., Ғозиева М. Тил назарияси ва амалиёти. Ўқув-услубий қўлланма. – Фарғона, 2016.

Namuna sifatida filologiya fanlari doktori, professor D.Lutfullayeva hamda filologiya fanlari doktori, professor D.Xudoyberganovalarning "Tilni tadqiq etish paradigmalari, ularning tavsifi va qiyosiy tahlili. Tilga antroposentrik yondashuvning mohiyati. Antoposentrik tilshunoslikning vujudga kelishi, o'rganish obyekti, asosiy tushunchalari. Antoposentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlari" mavzusidagi ma'ruza matnini keltiramiz.

1. "Paradigma" tushunchasi
2. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi.
3. Antroposentrik paradigmaning asosiy yo'nalishlari.

Ilmiy paradigma (yunoncha "misol, namuna") fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan va shu asosda fanning turli bo'limlarida o'xshash bo'lgan, o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyidir. Ilmiy metodologiya va ilmiy metodlardan farqli o'laroq, aniq tarixiy xususiyatga va ijtimoiy-madaniy tarqalish chegarasiga ega. Mazkur termin 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi T. Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asarida muomalaga kiritilgan.

Ma'lumki, lingvistikada (umuman, ijtimoyi fanlarda) paradigmalar bir-birini o'zgartirmaydi, biroq biri boshqasini to'ldiradi, ayni paytda biri ikkinchisiga e'tibor bermagan holda birga yashaydi. An'anaviy tarzda ilmiy paradigma uch turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik.

Tilshunoslikda ilk ilmiy paradigma qiyosiy-tarixiy paradigma sanaladi. Chunonchi, qiyosiy-tarixiy metod til tadqiqining dastlabki xususiy metodi bo'lgan.

Sistem-struktur paradigmada asosiy e'tibor predmetga, narsaga, otga qaratilgani uchun so'z diqqat markazida bo'lgan. Hozir ham tilni sistem-struktur paradigma doirasida tadqiq qilish davom etmoqda. Bu paradigma tarafdorlarining soni ham talaygina. Hali ham mazkur paradigma asosida darsliklar, akademik grammatikalar yozilmoqda. Shubhasiz, sistem-struktur paradigma doirasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar nafaqat hozirgi, balki kelajakda boshqa paradigmalar asosida izlanish olib boradigan tilshunoslar uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Antroposentrik paradigma bu tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. I.A.Boduen de Kurtene ta'biri bilan aytganda, "til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko'ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo'ladi".

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi[4].

Antroposentrizm so'zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan[5]. *Antroposentrizm* termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson - koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Evropada keng tarqaldi . Prof. Sh.Safarov antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi.

---

[4] Bu haqida qarang: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

[5] http // ph.ras.ru// elib 0215 html: Новая философская энциклопедия.

Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi"[6].

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"[7].

Tilning antroposentrik g'oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda lingvistik tahlilning maqsadi, til tizimlarining turli tavsifini shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi. Til kishilik jamiyatida vujudga kelgan ko'p qirrali hodisa: u sistema va antisistema, faoliyat hamda ushbu faoliyatning mahsuli, ruh va moddiyat va h.k. Y.S.Stepanov tilning murakkab mohiyatini yortish uchun uni bir necha obrazlar ko'rinishida taqdim etgan bo'lsa-da, ulardan hech biri tilning barcha qirralarini to'liq ochib berolmaydi: 1) til *individning tilidir*; 2) til - *til oilalari a'zosi*; 3) til – *struktura*; 4) til – *tizim*; 5) til – *tur va xususiyat*; 6) til – *kompyuter*; 7) til – *fikrlar makoni va "ruhning uyi"* (M. Xaydegger), ya'ni til *insonning murakkab kognitiv faoliyatidir*. XX asrning oxiriga kelib bularga yana bir ta'rif qo'shildi: til – *madaniyat mahsuli*, uning muhim tarkibiy qismi, yashashining sharti, madaniy kodlarning shakllanish omilidir.

---

[6] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – Б. 35.

[7] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyoni o'zini bilish, o'zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Masalan, hech qanday mavhum nazariya nima uchun olov hissi haqida o'ylaganda *sevgi olovi*, *yurak otashi*, *iliq do'stlik* va h.k. haqida gapirilishini izohlay olmaydi. Barcha narsalarning o'z o'lchovida anglash insonga uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Uni maishiy emas, balki ilmiy darajada tadqiq qilish mumkin bo'ladi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo'lgan bu tartib uning ma'naviyatini, qadriyatlarini va xatti-harakati motivlarini belgilaydi. Bularning barchasini inson nutqini, xususan, uning eng ko'p qo'llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin.

Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog'liqdir. "Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati "til qanday qurilgan" degan masaladan "til qay tarzda amal qiladi" degan masalaga ko'chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo'lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi"[8].

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o'tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini butunlay chetga surib qo'ydi[9]. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

---

[8] Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // http:www.Nbuv.Cov.ua/portal/Sog-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf.

[9] Qarang: Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – №1. – С. 64.

Ilmiy paradigmaga "til egasi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi[10].

Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan til tizimini lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Tilga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog'langan gaplar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tili tizimi ham dunyo tilshunosligida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antropotsentrizm asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o'zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

3.5. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan test namunalarini tuzish

"O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti" mavzusi bo'yicha talabalarga test namunalari tuzish topshirig'ini berish mumkin. Ma'lumki, test tuzishning ham ma'lum qoidalari, tartiblari bor. Testlar odatda uch darajada tuziladi:

1. Oson – testdan o'tuvchining xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, unchalik murakkab bo'lmagan bir hodisa yoki qonuniyatni bilishni talab qiluvchi daraja.

2. O'rtacha qiyin – testdan o'tuvchini tahlil qila olishni, ikki-uch qoida yoki qonuniyatni bir vaqtda qo'llay olish natijasida to'g'ri xulosaga kelishni talab qiluvchi daraja.

3. Qiyin – jarayonni prognoz qilishda testdan o'tuvchining to'g'ri javobni topish uchun zarur bo'lgan hodisa va qonuniyatlarni tahlil qila olish qobiliyatini talab qiluvchi daraja.

---

[10] Седов К.Ф. Дискурс и личность. –С.5.

Testda to‘g‘ri javobga ishora qiluvchi so‘z va iboralar qo‘llanmasligi kerak. To‘rtta javob berilib, ulardan bittasi mutlaq to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Quyida mavzu yuzasidan tuzilgan test namunalarini tkeltiramiz.

1. Orfografiya prinsiplari nima?

A.Imlo qoidalari.

B.Imlo qoidalarining yozma nutqdagi ahamiyati.

*D.Imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo‘lgan tamoyillar.

E.Imlo qoidalari va talaffuz me’yorlari o‘rtasidagi aloqalar tizimi.

2. *Asal* (atoqli ot) va *asal* (turdosh ot), *Go‘zal* (atoqli ot) va *go‘zal* (sifat) so‘zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A.Differensiatsiya prinsipiga.

*B.Semantik-uslubiy prinsipga.

D.Shakliy-an’anaviy prinsipga.

E.Morfologik prinsipga.

3. *Aytgan, aytguncha* kabi fe’l shakllarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A.Fonematik-morfologik prinsipga.

B.Fonetik prinsipga.

*D.Morfologik prinsipga.

E. Shakliy-an’anaviy prinsipga

4. Lotin o‘zbek yozuvi uchun tuzilgan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” qanday bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?

A.1) ayrim tovushlar imlosi; 2) qo‘shma va murakkab so‘zlar imlosi; 3) juft va takroriy so‘zlar imlosi; 4)bo‘g‘in ko‘chirilishi;
5) bosh harflarning yozilishi.

B. 1) ayrim harflarning imlosi; 2) o‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi; 3) qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalari imlosi; 4) bo‘g‘in ko‘chirilishi; 5) bosh harflarning yozilishi.

*D. 1) harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi; 2) asos va qo‘shimchalar imlosi; 3) qo‘shib yozish; 4) chiziqcha bilan yozish; 5) ajratib yozish; 6) bosh harflar imlosi; 7) ko‘chirish qoidalari. E. 1) ayrim unlilar imlosi; 2) ayrim undoshlar imlosi; 3) so‘z formalari imlosi; 4) qo‘shma so‘zlar imlosi; 5) juft va takroriy so‘zlar imlosi; 6) bosh harflar imlosi;7) bo‘g‘in ko‘chirilishi.

E. 1) ayrim unlilar imlosi; 2) ayrim undoshlar imlosi; 3) so‘z formalari imlosi; 4) qo‘shma so‘zlar imlosi; 5) juft va takroriy so‘zlar imlosi; 6) bosh harflar imlosi;7) bo‘g‘in ko‘chirilishi.
5. Lotin o‘zbek yozuvining grafik tizimida sintetik grafemalar bormi?
A. Ha
*B. Yo‘q
D. Monograf shaklidagi turi bor.
E. Poligraf shaklidagi turi bor.
6. *Sanamoq* fe’lining yozilishi orfografiyaning qaysi prinsipiga asoslangan?
A.Morfologik prinsipga.
*B.Fonetik prinsipga.
D.Fonematik prinsipga.
E.Grafik prinsipga.
7.*Past, sust* so‘zlaridan yasalgan *pasaymoq, susaymoq* fe’llarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
A.Morfologik prinsipga.
B.Semantik prinsipga.
D.Tarixiy-an’anaviy prinsipga.
*E. Fonetik prinsipga
8.*Jazo va vijdon* so‘zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
A.Fonetik prinsipga.
*B.Grafik prinsipga.
D.Fonematik-morfologik prinsipga.
E.Tarixiy-an’anaviy prinsipga.
9. *Hurriyat, baxt, jumhuriyat* kabi so‘zlarning yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?
*A.Shakliy-an’anaviy prinsipga.
B.Grafik prinsipga.
D.Semantik-uslubiy prinsipga.
E.Differensiatsiya prinsipiga.
10.Rus grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi qachon tasdiqlanadi?
A.1938-yilning 9-dekabrida.
B.1939-yilning 23-oktyabrida.

D.1939-yilning 18-noyabrida.
*E.1940-yilning 8-mayida.
11. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?
A.1993-yilning 2-sentabrida.
B.1994-yilning 8-mayida.
D.1995-yilning 6-mayida.
*E.1995-yilning 24-avgustida.
12. Qaysi qatorda geografik nomlar imlosiga amal qilingan?
A. To'ytepa, Oltiariq, O'rta Chirchiq,
B. To'y-Tepa, Oltiariq, O'rtachirchiq
C. To'y tepa, Oltiariq, O'rta-chirchiq.
D. To'y Tepa, Olti Ariq, O'rta Chirchiq.
13. Rus grafikasiga asoslangan ozbek yozuvining imlo qoidalari - O'zbek adabiy tilining orfagrafiyasi qachon tasdiqlanadi ? Uning qayta ishlangan , takomillashtirilgan songgi variant–chi ?
A.1940-yilning 8-mayida, qayta ishlangan varianti - 1970-yilning 5-iyunida.
*B.1940-yilning 4-iyulida ,qayta ishlangan variant – 1956-yilning 4-aprelida.
D.1941-yilning 12-martida, qayta ishlangan varianti -1952-yilning 9-aprelida.
E.1942-yilning 8-yanvarida, qayta ishlangan varianti -1957-yilning 6-iyulida
14. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining birinchi varianti qachon tasdiqlandi?
*A.1993-yilning 2-sentabrida.
B.1995-yilning 6-mayida.
D.1995-yilning 24-avgustida.
E.1995-yilning 21-dekabrida.
15. Arab grafikasidan voz kechib, lotin grafikasiga o'tish kerakligi haqida birinchi taklif qachon va qayerda kiritiladi?
*A.1921-yilda, Toshkentda: alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi O'lka qurultoyida kiritiladi.

B.1922-yilda, Toshkentda: Turkiston Respublikasi "O'zbek madaniyati va maorifi xodimlari qurultoyida".
D.1923-yilda, Buxoroda: O'rta Osiyo o'zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi konferensiyasida.
E.1926-yilda, Bokuda: Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyida
16. Lotin o'zbek alifbosining amalga kiritilgan so'nggi variantida nechta grafik belgi bor?
A.31 ta harfiy belgi va bitta noharfiy belgi (tutuq belgisi).
B.35 harf, shundan ikkitasi diakritik harf.
D.30 ta harf va bitta tutuq belgisi.
*E.26 ta harf va 3 ta harfiy birikma (jami-29 ta)
17. O'zbek tili unli fonemalarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan harflar miqdori lotin o'zbek alifbosida nechta?
*A. 6 ta B. 7 ta
D. 8 ta E. 9 ta
18. "ng" bir tovushni ifodalagan so'zlarni belgilang.
A tongi, otangiz, tonggi, dengiz
B. tungi, unga, manglay. tingla
C) menga, singan, singgan, dengiz
D) yongan, singil, ko'ngil, bobongiz

Foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол.фан.номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2008

2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1997.

3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zMU, 2013.

4. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.

5. Йўлдошев Б. Ўзбек тили фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиш ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2007.

6. Йўлдошев Б., Адашуллаева Г. Ўзбек тилида ўзлашма фразеологизмларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2012.

7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Фил. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2000.

8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврўз, 2019.

9. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995

10. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

11. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари. . Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2011.

12. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филол. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019,

13. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуономия. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1994.

14. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. - 464 b.

15. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

16. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз.дисс... автореф. – Тошкент, 2001.

17. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
18. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
19. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 398 b.
20. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990
21. Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
22. Холмуродова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фал. док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019.
13.Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
24. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1997.
25. Қиличов Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000.
26. Ҳакимов М., Зокиров М., Зокирова С., Ғозиева М. Тил назарияси ва амалиёти. Ўқув-услубий қўлланма. – Фарғона, 2016.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....3

I. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....4

II. “HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH.....7

2.1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar.....7

2.2. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan semestrlar bo‘yicha mustaqil ish turlari va mavzulari.....11

III. “HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHGA DOIR KO‘RSATMALAR

3.1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan matn tuzishga doir mustaqil ishlarni bajarish.....15

3.2. Matn tahlili ustida ishlash bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish.....18

3.3. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan ilmiy referat yozish tartibi.....20

3.4. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan ma’ruza matnlari namunalarini tuzish.....28

3.5. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan test namunalarini tuzish..33

Foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar.....38

Adadi 50 nusxa. Hajmi 2,5 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
OOO “AKTIV PRNIT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.